

BADIIY MATNDA USLUBIY BO'YOQDORLIKNI OSHIRUVCHI LEKSIK VOSITALAR

Asqaraliyeva Dilshoda

Namangan davlat universiteti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy matn, undagi uslubiy bo'yoqdorlik va ta'sirchanlik masalasi tahlil qilinadi. Hissiy ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiluvchi lwksik vositalar: sinonimlar, antonimlarning badiiy nutq yaratishdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, hissiy ta'sirchanlik, sinonimlar, antonimlar, antiteza.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы стилистической окрашенности и выразительности художественного текста. Освещается роль и значение лексических средств, способствующих повышению эмоциональной выразительности, таких как синонимы и антонимы, в создании художественной речи.

Ключевые слова: художественный текст, эмоциональная выразительность, синонимы, антонимы, антитеза.

Annotation: This article analyzes the issues of stylistic coloring and expressiveness in a literary text. It highlights the role and importance of lexical means that enhance emotional expressiveness—such as synonyms and antonyms—in the creation of artistic speech.

Keywords: literary text, emotional expressiveness, synonyms, antonyms, antithesis.

Til nutq uchun moddiy material hisoblanadi¹ Tilda har bir unurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlari bor. Ana shu qonuniyalardan mukammal boxabar bo'lgan, so'z sezgisi va mahorati yuksak yozuvchi betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar paydo qila oladi. Shunda kitobxon asarning nafaqat g'oyasi, balki go'zal tilining asiriga aylanadi. Bunda umumxalq tilidagi badiiy tasvirga favqulodda muvofiq birliklarni tanlash, saralash va sayqallash asosida, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik ma'nolar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Yozuvchining so'z qo'llash mahoratini baholash uchun, avvalo, so'z va uning ma'nosi, bu ma'noning tuzilishini aniq tasavvur etish lozim. So'zning qo'llanishi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan qo'shimcha ma'no nozikliklari turli tasvir usullari va

¹ Кудратов .Т. Нутқ маданияти асослари –Тошкент Ўқитувчи 1993., 19.-6.

vositalari orqali reallashishi mumkin. Ammo bunday qo'shimcha ma'no nozikliklari ko'pincha so'z ma'nosining o'zida imkoniyat tarzida mavjud bo'ladi, ular so'zning ma'no qurilishida ilgari qayd etilgan bo'ladi.

Tildagi nominativ birliklarning ma'no tuzilishini o'rganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ jihati tushunchasiga alohida e'tibor beriladi. V.N.Teliya ta'rificha, konnotatsiya-til birliklari semantikasiga uzual va okkazional ravishda kiradigan, nutq seb'ektining borliqni jumlada ifodalashda uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy-baholash va stilistik munosabatini fidalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyatdir.

Til mohiyati, ichki qurilishi jihatdan denotativ (atash, nomlash, nominativ), va konnotativ (emotsional-ekspressiv) ma'no bildirib shu asosda informatsiya (aloqa) vazifasini bajara oladigan vosita ekanligi uning ichki dualizmi, bir tomondan, obyektiv borliqni aks ettiruvchi tafakkurning shakli; ikkinchi tomondan, har bir elementning mohiyati shu elementning boshqa elementlar bilan bo'lgan ichki munosabatidan kelib chiqadigan mustaqil tizim ekanligi bilan chambarchas bog'liq. Agar tilning atash vazifasi uning tafakkur shakli, tushunchalarni qolipga soluvchi bir vosita ekanligi bilan bog'liq bo'lsa, uning ekspressiv vazifasi tilning mustaqil sistema ekanligi, elementlarning mohiyati ularning ichki munosabatlari asosida ochilishi mumkinligi bilan bog'liq.

So'z semantikasida denotativ ma'no bilan birga konnotativ ma'no ham mavjud. Konnotativ ma'no so'z semantikasidan denotativ ma'no ajralgandan keyin hosil bo'lgan ayirmaga teng.

O.S.Axmanovanning ta'kidlashicha, so'z semantikasida 2 xil konnotatsiya mavjud: ingerent konnotatsiya-so'z matndan tashqari holatida unga xos bo'lgan konnotativ ma'no va adgerent konnotatsiya-so'zda ma'lum kontekstda paydo bo'ladigan konnotativ ma'no.

Nutqdan tashqarida, ma'lum bir matnsiz ham so'zning semantik tarkibiga kiruvchi va paradigmatic munosabatlar bilan belgilanadigan konnotativ ma'no ottenkalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) so'zlovchining ijobiy-neytral-salbiy munosabati ifodalanadigan so'zlardagi ma'no ottenkalari: chehra-yuz-bashara;
- 2) munosabat darajasi, miqdoriga ko'ra farqlanadigan ottenkalar: chiroyli-go'zal-suluv;
- 3) so'zning qo'llanish doirasiga ko'ra: ajab-ajib, do'ppi-kallapo'sh.

Adgerent konnotativ ma'no til elementining sintagmatik munosabatini o'zgartirish asosida hosil bo'ladi. (birikish potentsialini). Neytral konnotativ ma'noli so'zlar kontekst ta'sirida u yoki bu konnotativ ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Jumladan, ko'chma ma'no so'z memantik strukturasini buzish, undagi biror semani tushirish, ikkinchi semaning bo'rttirilishi asosida h/b. M-n, «po'lat» so'zining

denotativ ma'nosi metall qotishmasining bir turi ekanligi». Har bir predmet o'zining ma'lum belgilari bilan xarakterlangani kabi «po'lat» bizning ongimizda «mustahkamlik», «qattqlik belgilari bilan xarakterlanadi. Bu «po'lat» so'zining ichki konnotativ ma'nosini t/e. Mana shu «qattqlik», «mustahkamlik» konnotativ semalarni «metall qotishmasi» semasidan ajratib boshqa bir predmetga nisbatan berilsa, kuchli konnotativ ko'chma ma'no p/b: po'lat iroda.

Ma'lumki, til elementlarining mohiyati bu elementlarning nafaqat paradigmatic, shuningdek, sintagmatik munosabatlari, ya'ni qanday elementlarga bog'lana olishi bilan ham belgilanadi. Yuqoridagi «po'lat iroda» birikmasida «po'lat» so'zining tildagi sintagmatik munosabati buzilgan. Til bosqichida birikuv yo'li bilan metall nomlarini ifodalovchi otlar faqat shu metallardan yasalishi mumkin bo'lgan predmetlar nomini anglatuvchi otlar bilan birika oladi: po'lat pichoq, po'lat sandiq kabi. «po'lat iroda» birikmasida esa bu so'z abstrakt tushunchani ifodalovchi so'z bilan birikkan.

Ma'nodosh so'zlar tilning lug'aviy jihatdan boylik darajasini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos vositadir. Tilda ma'nodosh so'zlarning ko'p bo'lishi tilning estetik vazifasini yana-da to'liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu juda qadim zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o'rganilgan hodisadir. O'zbek tili ma'nodosh so'zlarga juda boy. Yozuvchilartilimizdagi ma'nodosh so'zlar ichidan tasvir aqsadiga eng munosibini topib ular orqali qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha ifodalashga harakat qiladilar. Badiiy matndagi ma'nodosh so'zlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e'tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlashi bo'lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llashi masalasidir.

Sinonimlar til boyligi bo'lib, avvalo, shaxs va predmetlarning eng nozik ma'no bo'yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Leksik ma'nodoshlikdan bir necha maqsadlarda foydalaniladi. Til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag'alligi va rangsizligidan qochish uchun: *Ikkala o'rtoqning sharaq-sharaq gaplashgan, bir-birlariga sevinch bildirishgan quvnoq va baland ovozlari boshqa hamma unlarni bosib ketdi.* (Cho'lpon) Tasvir obyektiga e'tiborni jalb qilish uchun: *Xolbuki, musulmonlik kiyimda emas, qalbda, dilda.* (Cho'lpon) Ijobiy belgining darajama-daraja ortib borishini aniq ifodalash uchun: *Zebixon bilan kelgan boshqa qizlar ham bir-biridan yaxshi, bir-biridan soz, bir-biridan ochiq bir-bihdan quvnoq...* (Cho'lpon) Salbiy belgining kuchayib borishini ifodalash uchun: *Xo'sh, mingboshining o'ziodamlaraytgani judaxunuk va badbashara odammi?* (Cho'lpon)

Kontekstual ma'nodoshlik. Katta mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud bo'lgan, tayyor ma'nodosh so'zlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko'ra

ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni ham shunday qo'llaydilarki, bu so'zlar ham matnda xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etiladi. Masalan: *Kechagina qarg'ab. so'kib, «o'ldirsam!» deb yurgan kundoshini o'pib, quchoqlab, silab-siypab bir nafasda ikkalasi «qalin do'st» bo'lgan emishlar.* (Cho'lpon)

Omonimlar ham badiiy nutqda uslubiy bo'yoqdorlikni oshirishga xizmat qiladi. Omonimlar tjanis va iyxom san'atlarini yuzaga keltiradi. Bu xususiyatdan, ayniqsa, mumtoz badiiy matnlarda unumli foydalanilgan.

Qaro ko'zum, kelu mardumliq emdi fan qilg'il,

Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il. (Navoiy)

Navoiyning mashhur baytida qaro ko'zum va mardum so'zlari tajnis va iyxom san'atlarini yuzaga keltirgan. Qaro ko'zum: 1) ey qaro ko'zligim; 2) ey ko'zimning qarosi. Mardum: 1) qorachiq; 2) inson.

M. Yusufning mashhur "Ko'klamoyim" she'rida ham tajnisdan foydalanilgan:

Ko'nglimga ko'k binafshalar sochilsin,

Kokiliga tolpopukdan soch ilsin...

Paronimlar ham badiiy nutq ta'sirchanligini oshiruvchi leksik vositalardandir. Paronimlarga asoslangan uslubiy figura paronomaziya deb yuritiladi. Badiiy adabiyotda paronomaziya ifodalilik, ohangdorlikka erishish, komik effekt yaratish, so'z o'yini hosil qilish kabi maqsadlarda foydalaniladi. Badiiy adabiyotda o'xshash so'z (paronim)lar qahramonlar nutqini individuallashtirish, ularning ma'naviy hamda lisoniy saviyasini ko'rsatish uchun ham ishlatiladi. Quyidagi parchada paronimlardan komik effekt yaratish maqsadida foydalanilgan. Qahramon kompot (mevalardan tayyorlanadigan sharbat) va kompost (chiqindilardan achitib tayyorlanadigan organik o'g'it) paronim so'zlarining ma'nosini bilmaganligi uchun kulgili vaziyatga tushadi: *Aylanib yurib to'rtinchi brigada dalasida janjal ustidan chiqib qolibman. Bo'lim boshlig'i O'rmon aka bilan brigadir Rahimjon aka nima to'g'risidadir qo'llarini paxsa qilishib bahslashmoqda edi. Meni ko'rishi bilan bo'lim boshlig'i:*

- O'rtoq agronom sizdan bir iltimosim bor, -deb qoldi.

- Agar malol kelmasa, mana bu Rahimjonga, uning a'zolariga kompost to'g'risida gapirib bersangiz. Bularhaligacha hesh narsa tushunmas ekan.

- Marhamat, -dedim-da, iyoq - bu yoqqa qarab olgach, leksiya o'qishga tushib ketdim:

- O'rtoqlar, kompotjuda foydali ichimlik, uni asosan mevadan tayyorlashadi. Mevalarning xili qanchalik ko'p bo'lsa, i shuncha shirin bo'ladi. Bizning Farg'ona tomonlarda kompotni o'rik, shaftoliqoqi va olchanning qurug'idan tayyorlashadi. Xullas, kompot ichmabsiz, dunyoga kelmabsiz... Gapimni tugatmasimdan o'tirgan odamlar sharaqlab kulib yuborishdi. (X.To'xtaboyev)

Said Ahmad o'zining «Sinovchi uchuvchi» deb nomlangan hajviyasida ham o'xshash talaffuzli so'zlar vositasida paronomaziyaning yuzaga keltirgan: *Har bir*

korxonaning mahsuloti sifatini aniqlaydigan o'z sinovchilari bo'ladi. Masalan: yangi samolyotni birinchi uchirib beradigan uchuvchini **sinovchi-uchuvchi** deydilar... Mana, qarshimizda turgan barvasta qomatli, qarashi burgut nigohini eslatadigan, butun vujudidan kuch-g'ayrat, sadoqat, vafo sezilib turgan kishi mana shu zavodning **sinovchi-ichuvchisidir**

Birinchi parchadagi paronamaziyada ikkita o'xshash so'zning qahramon tarafidan farqlanmasligi, ya'ni ikkita alohida so'z ma'nolarining qorishtirilishi natijasida kulgili holat yuzaga kelgan. Ikkinchi parchadagi paronamaziyada esa qahramon kulgili vaziyatni yuzaga keltirish uchun atayin o'xshash talaffuzli yangi konstruksiyani hosil qiladi.

Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. «Shoir uchun juda zarur bo'lgan san'atlardan biri tazoddir. Bu san'atyana *mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod* va *takofu* deb ham ataladi. Yevropa filologik an'anasida bu san'at «*antiteza*» deb yuritiladi. Badiiy asar tiliga bag'ishlangan ishlarda *zidlantirish, qarshilantirish* atamalaridan foydalaniladi. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi.

Nasriy asarlarda ham badiiylik, hayotiylikni yuzaga chiqarish uchun uslubiy vositalardan biri bo'lgan antitezadan unumli foydalaniladi. Mashhur hikoyanavis A. Qahhorning «To'yda aza» hikoyasida ham antiteza uslubiy vosita sifatida katta ahamiyat kasb etgan.

Antitezaning asosiy vazifasi kontrast hisoblanadi. Semantik kontrast asosida maxsus sintaktik strukturaga ega bo'gan nutq birliklarinig stilistik maqsadda qarama-qarshi qo'llanishi natijasida antiteza hodisasi yuzaga keladi².

Antiteza uslubiy qarshilantirish usulidir. U ikkilik xarakteriga ega, yani unda faqat ikki narsa bir-biriga solishtiriladi va zid qo'yiladi. Masalan: Bu xildagi odamlar vaqtida na o'qib bilim oladi, na uqib hunar; bir vaqt qarasaki, hamma nimanidir qilyapti va hech narsa qilmaydigan odamga tahqir nazari bilan qarayapti. («Maston»)

2. Hamshira yo'l qilib Hojini olib chiqishga chiqdi-yu, lekin baribir Mastura payqadi. («Ming bir jon»)

Nutqda ifodalilikni yanada oshirish maqsadida mazmunan biri ikkinchisiga zid tushunchalar, mantiqan biri ikkinchisini rad etuvchi fikrlarni qarama-qarshi qo'yiladi. Antiteza hodisasi til sathlarining barchasida kuzatiladi. Antitezani yuzaga chiqishida quyidagi omillar muhim:

² Мамажонов А. Кўшма гап стилистикаси. –Т.: «Фан», 1990. 15-бет.

1. Antonim soʻzlar. Masalan: 1. Bu **gʻazab** odamlarning koʻnglidagi domlaga boʻlgan **hurmat va muhabbat** tuygʻusini chirita boshladi. 2. ...Koʻplar oʻsha **toʻyni** domlani **janozasi** deb hisoblashgan edi...

2. Tasdiq va inkor shaklli soʻzlar. Antitezali gaplarda tasiq va inkor formali soʻzlar antiteza materiali boʻlib kelishi mumkin. 2. Marosimga mahalladan odam koʻp qatnashmadi, aftidan, domla koʻp odamning qalbida bundan bir oy burun oʻlgan, koʻplar osha toʻyni domlani janozasi deb hisoblashgan edi. (“Toʻyda aza”)

3. Antiteza materiali predikativ birliklardan boʻlishi mumkin. Masalan: Karim ota avval : “birovning sirini aytmayman”, deb tarxashlik qildi-yu, bir-ikki savolga javob bergandan keyin qulfi-dili ochilib ketdi: ikki gapning birida peshonasiga urib, goh boʻgʻilib, goh qotib-qotib kulib, odamlarni kuldirib hikoya qila boshladi.

Antitezali qoʻshma gaplar nutq uslublaridan asosan ikkitasida: soʻzlashuv va badiiy uslublarda keng qoʻlaniladi. Antiteza usuli kitobxonga nutqda qarama-qarshi qoʻyiladigan voqea-hodisa, predmetlar oʻrtasidagi aloqani aniq izohlashga yordam beradi. Alohida olinganda bir-biriga zid boʻlmagan predmetlar, tushunchalar badiiy asarda kontekst talabi bilan oʻzaro qarama-qarshi qoʻyilishi mumkin. Masalan: Oʻzi shunaqa boʻladi-ku: yaxshining yuzida zuluk ham xol boʻlib koʻrinadi(„Toʻyda aza“). Keltirilgan misolda predmet qarshilantirilgan: **zuluk, xol**.

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, antiteza uslubiy vosita sifatida badiiy matnda keng tarqalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoʻldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili. – Toshkent, 2013.
2. Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент, 1990.
3. Қудратов .Т. Нутқ маданияти асослари. –Тошкент, 1993.